

Mustaqillik Yillarida O‘zbekistonda Bozorlar Faoliyatining Rivojlanishi

Inamov Odil Tolibovich¹

Anatatsiya: Maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda bozorlar faoliyatining rivojlanishi uning tarixi bosqichlari ko‘rib chiqiladi, Markaziy Osiyo hududlarida qadimdan savdo faoliyatining rivojlanishi, o‘rganilib hozirgi zamonaviy bozorlarining vazifalarini shakllanishidagi o‘rni ochib beriladi. Misol tariqasida "Farg‘ona shahar Markaziy dehqon bozori" aksiyadorlik jamiyati olinib o‘rganiladi va jamiyat faoliyatini rivojlanish bosqichlariga alohida ahamiyat beriladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy islohotlar, bozor infratuzilmasi, savdo usullari, qiymat, dehqon (oziq-ovqat) bozori, savdo yarmarkasi, baholash.

Kirish. Har bir davlatning taraqqiy etishi albatta uning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy ravnaqiga bog‘liqdir. Shu o‘rinda savdoning alohida rolini e‘tirof etish zarur, har qaysi davrda boshqaruv hukumati savdo-sotiqni taraqqiy ettirishni, uning uchun barcha sharoitlarni yaratib berish asosiy vazifalardan biri sanagan. Ayniqsa, markazlashgan davlatning salohiyati kuchli bo‘lgan davrlarda mamlakat iqtisodiyoti ravnaq topgan, yangi bozorlar qurilgan, mavjudlari kengaytirilgan, savdo do‘konlari, karvonsaroylar va boshqa savdo inshootlari barpo etilgan. Savdo munosabatlari, boj tizimi tartibga solinib, ularning nazorati kuchaytirilgan. [10], [11]

O‘zbekistonning boshqa qismlariga qaraganda Farg‘ona vodiysi o‘tmishda ham, hozir xam tabiiy joylashuvi afzalliklarga ega bo‘lgan, ulkan salohiyatli markazlardan biridir. Tarixan har qanday qulay joylashuv iqtisodiyotining vujudga kelishi va rivojlanishi sabab bo‘ladi, xususan savdoning ham.

Bozor o‘rta Osiyo shahri hayotida har doimo katta ahamiyat kasb etgan bo‘lib beqiyos rol o‘ynagan. Uning iqtisodiy ahamiyatidan tashqari tarixan odamlar orasida axborot almashuv vositasi, eng muhimi ma‘lumot bazasi hisoblangan.[6] Har bir shaharda bir nechta bozorlar faoliyat ko‘rsatgan, yirik shaharlarda esa o‘nlab bozorlar o‘z faoliyatini yuritib kelgan va bu an‘ana hali xam davom etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bozorlar odamlar savdo bilan shug‘ullangan paytgacha mavjud bo‘lgan. Dastlabki bozorlar Forsda paydo bo‘lgan deb hisoblashadi, u yerdan ular qolgan qismlarga tarqalib ketgan Yaqin Sharq va Yevropa. Hujjatli manbalarda, rayonlashtirish siyosati miloddan avvalgi 3000 yilgacha shaharlarning ayrim qismlarida savdo-sotiq bilan cheklanib, bozor paydo bo‘lishi uchun zarur sharoitlarni yaratgan. [5], [15] Yaqin Sharq bozorlari odatda savdogarlar va xaridorlarni shiddatli quyoshdan himoya qilish uchun mo‘ljallangan, ikki tomonida rastalari va yopiq tomi bo‘lgan uzun chiziqqlar edi. Yevropada norasmiy, tartibga solinmagan bozorlar asta-sekin XII asrdan boshlab rasmiy bozorlar tizimiga yo‘l ochdi.[17] Davomida O‘rta asrlar davri, bozor amaliyotini, ayniqsa og‘irlik va o‘lchovlarni tartibga solishni kuchaytirishi iste‘molchilarga bozor tovarlari sifatiga va narxlarning adolatli bo‘lishiga ishonch bag‘ishladi. Dunyo bo‘ylab bozorlar mahalliy atrof-muhit sharoitlariga, ayniqsa ob-havo, urf-odat va madaniyatga qarab har xil shakllarda rivojlanib bordi. Yaqin Sharqda savdogarlar va xaridorlarni quyoshdan himoya qilish uchun bozorlar yopiq bo‘lishga moyil. Yumshoq iqlim sharoitida bozorlar ko‘pincha ochiq havoda. Osiyoda, yangi mahsulot bilan savdo qiladigan ertalabki bozorlar va tez buzilmaydigan narsalar bilan savdo qiladigan tungi bozorlar tizimi keng tarqalgan.

Markaziy Osiyo va O‘zbekistondagi bozor o‘zining qadimiyligi bilan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu yerlarda qadim davrlardanoq inson iqtisodiy faoliyati ancha yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Avvalo shuni ta‘kidlash zarurki, sharq bozorida maxsus savdo rastalari, do‘konlar, omborlar, karvon saroylar kabilar bo‘lgan. Shu bilan birga savdogarlar o‘z vatanlaridan uzoq bo‘lgan bir necha bozorlarda oldi-sotdi ishlarida qatnashishgan, hatto bir necha mamlakatlar bozorlarida ishtirok etishgan.

Shaharlar ko‘payib, yirik-yirik savdo markazlari paydo bo‘ldi. Savdo avji hunarmandchilik va xaridorgir mollar ishlab chiqarishni kengaytirdi. Bu vaqtga kelib Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Shahrisabz kabi jahon ahamiyatiga molik savdo markazlari yuzaga keldi. Movarounnahr bozorlari Sharq va g‘arb mamlakatlari savdogarlarini o‘ziga jalb etdi.

Tahlil va natijalar. Yurtimiz mustaqilligining qo‘lga kiritilishi O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi. Bizning diyorimizda bozor munosabatlari yangilik emas. Ming yillar davomida ajdodlarimiz hunarmandlar ishlab chiqargan ajoyib mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini dunyoning to‘rt tomoniga chiqarib savdogarlik qilgan, mol almashgan.

¹ Farg‘ona davlat universiteti, "Tarix" yo‘nalishi, magistr

O‘zbekistonning boy imkoniyatlari, geopolitik sharoitidan foydalanib o‘zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘limizni belgilash dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi bo‘lib qoldi. [13], [16]

Davlatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritilishi bilan bozorlar faoliyatini tashkil etish masalasiga ham katta e‘tibor qarata boshladi, ayniqsa bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitlarida aholini ijtimoiy himoya qilish, ichki iste‘mol bozorini himoya qilish va tovarlarni faqat respublika fuqarolariga sotish uchun sharoit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi bir qator qarorlar qabul qilindi misol uchun: 1992-yil 10-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining butun hududida aholiga so‘mlarda haq to‘lash bilan birga kuponlar bo‘yicha tovarlar sotish joriy etildi, bu o‘z navbatida bozorlar faoliyatiga ham katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Dastlabki oziq-ovqat va buyum bozorlarini boshqarishni tartibga solish, bozorlarda savdoni tashkil etishni va iste‘molchilarning manfaatlarini himoya qilishni yaxshilash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozorlarning faoliyatini tashkil etishni va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, 1996-yil 5-martdagi PF-1384-sonli (hujjat kuchini yo‘qotgan 30.04.2021) Farmoni [2] qabul qildi, shu farmon asnosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bozorlarning faoliyatini va ularni boshqarishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 1996-yil 5-martdagi 82-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Patta to‘lovi miqdorlarini belgilash haqida” 1993-yil 23-martdagi 152-son, “Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 23-martdagi 152-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 1993-yil 20-iyuldagi 366-son qarorlari qabul qilindi.

Yana bir e‘tibor qaratish lozim bo‘lgan hujjatlardan biri bu O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to‘g‘risida” gi 1991-yil 19-noyabrda 425-XII-sonli qonunidir,[1] zero bu qonun asosida Respublikamiz hududida birinchi bozorlar tashkil etildi, misol uchun Farg‘ona shahar, “Markaziy dehqon bozori” aksiyadorlik jamiyati shu qonun asosan davlat tasarrufidan chiqarish natijasida mehnat jamoasining va ta‘sischilarning 1996-yil 20-apreldagi umumiy ta‘sis yig‘ilishi qarori va Davlat mulkini boshqarish qo‘mitasi Farg‘ona viloyat boshqarmasining buyrug‘iga asosan aksiyadorlik jamiyati sifatida tashkil topgan bo‘lib jamiyat o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, “Korxonalar to‘g‘risida” gi, “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, qonunlar va boshqa amaldagi normativ hujjatlar bo‘yicha ish yuritadi. Bugungi kunga kelib "Farg‘ona shahar Markaziy dehqon bozori" aksiyadorlik jamiyati aktivlari 22616821.90 ming so‘mni tashki etmoqda 2021 yil iyun holatiga.

Respublikamizda bozorlar faoliyatini tashki etishda asosiy maqsadi sifatida davlat iqtisodiy manfaatlar, aholining maishiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi, qo‘yilgan maqsadga erishish uchun bir qancha vazifalar belgilangan bular:

- Aholini dehqonchilik, oziq-ovqat va boshqa iste‘mol mollari bilan keng assortimentda ta‘minlash;
- Dehqonlarga, oziq-ovqat hamda boshqa iste‘mol mollari sotuvchilarga savdo qilishlari uchun zarur maishiy sharoitlar yaratish;
- Aholining tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talablarini o‘rganish;
- Bozorlar hududida joylashgan mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar savdo va boshqa korxonalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning bozorda xizmat ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatlariga ko‘mak – yordam berish;[7]
- Bozorlarda sotilayotgan mahsulotlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar va ularning iste‘molchilari manfaatlarini muhofaza qilish;
- Bozorlar hududida fuqarolar, korxonalar, fermerlar, jamoa xo‘jaliklaridan qishloq xo‘jaligi va boshqa iste‘mol mahsulotlarini xarid va savdo qilish bilan shug‘ullanadigan savdo-xarid korxonalari faoliyatini tashkil etish;
- Yuridik va jismoniy shaxslarga turli xil pullik xizmatlar ko‘rsatish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2012-yil 28-avgustdagi 253-son qarori [3] yurtimizda bozorlar faoliyatini yanada rivojlantirish va samarali tashkil etishda yana bir muhim qadam bo‘ldi, ushu qaror bilan bozor turlari belgilab berildi misol uchun:

dehqon (oziq-ovqat) bozori — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan joylarda doimiy yoki vaqtinchalik asosda faoliyat ko‘rsatadigan hamda savdo rastalari, savdo o‘rinlari va turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilyonlari)dan foydalangan holda keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning chakana savdosi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga mo‘ljallangan mulkiy kompleks;

chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozori — yuridik shaxsning alohida bo‘linmasi hisoblanadigan, dehqon (oziq-ovqat) bozorining chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar sotiladigan filiali;

ilgari foydalanishda bo‘lgan mol-mulkni sotish bozori — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan ixtisoslashuvi majburiy tartibda ko‘rsatilgan holda belgilanadigan muayyan kunlar va joylarda ilgari foydalanishda bo‘lgan noziq-ovqat tovarlari va mol-mulkning chakana savdosi amalga oshiriladigan bozor;

dam olish kuni yarmarkasi — mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bevosita qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan sotish uchun muayyan vaqtga (odatda dam olish kunlariga) shart-sharoitlar yaratish uchun maxsus ajratilgan hudud.

Yuqorida aytilgandan tashqari hozirgi zamonaviy bozorlar bir qancha qo'shimcha vazifalarni bajarishadi misol uchun Farg'ona shahar Markaziy dehqon bozori" aksiyadorlik jamiyati o'z faoliyatining maqsadi va doirasiga erishishda 27 turdagi faoliyat bilan shug'ullanadi. Yuqorida belgilangan umumiy vazifalardan tashqari Farg'ona shahar "Markaziy dehqon bozori" aksiyadorlik jamiyati o'ziga xos vazifalari ham mavjud, ulardan quyidagilarni aytish mumkin:

- ✓ Sohada zarur tartiblarni o'rnatish uchun huquqni muhofaza qilish va davlatning boshqa organlari bilan hamkorlikda huquq bu zarliklarga qarshi kurashni kuchaytirish va ta'minlash;
- ✓ Non va non mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;
- ✓ Bozorlarga fuqarolar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar tomonidan tashkiliy xolda yuqori sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlarini ommaviy ravishda keltirish yo'li bilan bozor narxlarini pasaytirishga qaratilgan iqtisodiy tadbirlarini o'tkazish, uzoq muddatli fyuchers shartnomalar tuzish;
- ✓ Bozorlar va yarmarkalarning moddiy-texnika bazasini har tomonlama rivojlantirish, ularni zamonaviy uskunalar, ashyolar va boshqa texnik vositalar bilan qurollantirish;
- ✓ Ikkilamchi resurslarni tayyorlash va qayta ishlashni tashkil etish, qishloq xo'jalik mahsulotlari chiqindilarini oborotga jalb etish, joylashtirish-o'rash buyumlarini tayyorlash va sotish;
- ✓ Tijorat, savdo-xarid, savdo vositachilik, faoliyati, do'konlarni, savdo uylarini tashkil etish va ularni ekspluatatsiya qilish; [8], [12]
- ✓ Investitsiya faoliyati, shu jumladan, xomashyo, mahsulotlar, eksport va import qilish operatsiyalarni, qonunchilikka muvofiq savdo vositachi operatsiyalarni amalga oshirish;
- ✓ Yuridik va jismoniy shaxslar manfaatlarini ko'zlab vakillik faoliyatini yuritish;
- ✓ Marketing, reklama, servis, vositachilik, agentlik, brokerlik xizmatlarini ko'rsatish;
- ✓ Mahsulot, fond, valyuta birjalari va birjadan tashqari oborotlarda operatsiyalarning barcha turlarini o'tkazish, qimmatli qog'ozlarni belgilangan tartibda joylashtirish, chiqarish va sotish; [9], [14]
- ✓ Jamiyat xayriya faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega.

Yuqoridagilarda ko'rinib turibdiki hozirgi kunda bozorlar juda ko'p funksional subyekt ko'rinishiga kelgan, kelajakda esa elektron tijorat, vositachilik, fond birjalaridagi faoliyat hisobidan yanada rivojlanish ko'rinib turibdi.

Xulosa. O'zbekistonning bozor tarixi bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, respublikamiz taraqqiyotida bozorlar alohida o'rin tutadi iqtisodiy o'zgarishlar davri, bozor munosabatlari tizimi davri bu yanada ahamiyatlidir.

Hozirgi O'zbekistonimiz hududida bozor faoliyatini o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi, chunki davlatning strategik rivojlanishi mahsulotlar bozorini yaxshilash, kengaytirish, samarali yuritish tizimini yaratish orqaligina erishiladi. Zero Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Iste'mol bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narxi barqarorligini ta'minlashning yagona yo'li – meva-sabzavot, chorvachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmini ko'paytirish hamda "daladan do'kongacha" bo'lgan uzluksiz zanjirni yaratishdir" ushbu so'zlarning naqadar chuqur ma'no va bugungi kundagi yurtimiz shoriga aylagan "Inson qadri uchun" tamoyilini yana bir bor e'tirof etadi. [4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida" gi 1991-yil 19-noyabrda 425-XII-sonli qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bozorlarning faoliyatini tashkil etishni va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi, 1996-yil 5-martdagi PF-1384-sonli (hujjat kuchini yo'qotgan 30.04.2021) Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2012-yil 28-avgustdagi 253-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020-yil 24-yanvar. <https://uza.uz/>
5. Михайлов, А. Ю. Рынки капитала и криптоактивов: тренды и поведение инвесторов : монография / А.Ю. Михайлов. — Москва : ИНФРА-М, 2023. — 219 с.
6. Наумов, В. Н. Рынки информационно-коммуникационных технологий и организация продаж : учебник / В.Н. Наумов. — Москва : ИНФРА-М, 2022. — 404 с

7. Qudbiyev, N. T., Qudbiyeva, G. A. Q., & Abduraximov, B. U. O. (2022). LOGISTIKADA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI. *Scientific progress*, 3(1), 133-142.
8. Ugli, A. B. U., Tohirovich, Q. N., Khatamovna, R. S., & Nigoraxon, M. (2021). Current Assets and Their Role in Company Activity. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 1(7), 25-30.
9. Shokiraliyevich, G. I., Erkinjon o'g, M. U. B., & Tohirovich, Q. N. (2022). MOLIYAVIY HISOBOTLARNI MHXS BO'YICHA TRANSFORMATSIYASINING ZARURATI, MOHIYATI VA DOLZARBLIGI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 339-344.
10. Qudbiyev, N. T., Axmadaliyeva, Z. A., & No, D. M. O. G. L. (2022). SOLIQ YUKINING BIZNES UCHUN AHAMIYATI. *Scientific progress*, 3(3), 699-708.
11. Qudbiyev, N. T., No, D. M. O. G. L., Raximjonov, U. R. O. G. L., & Razzaqova, D. A. Q. (2022). SOLIQ ORGANLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLINI OSHIRISH AHAMIYATI. *Scientific progress*, 3(1), 927-933.
12. Qayumov, N. A. O., & Qayumov, S. A. O. (2022). CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA INVENTARIZATSIYA O'TKAZISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 437-448.
13. Khatamovna, R. S. (2021). The Importance of Cost Behavioral Information to Improve the Efficiency of Factory Management. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 1(7), 19-24.
14. Савинова, Г. А. (2022). ОСОБЕННОСТИ КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И ИХ РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ ПРОИЗВОДСТВОМ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(6), 263-267.
15. Kudbiev, D., & Tashpulatov, A. U. (2022). ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY-MOLIYAVIY DASTAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 843-851.
16. Akbaralievich, E. A. (2022). OWN CAPITAL: ECONOMIC ESSENCE AND FORMATION ORDER. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 546-561.
17. Yakubov, V. G. (2022). MAHSULOT BOZORINI KENGAYTIRISH KORXONANING FOYDASINI OSHIRISH MUHIM OMILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 852-861.